



Sojidxon TURSUNOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sojidxatursunova0525@gmail.com

O'zMU dotsenti G.Keldiyorova taqrizi asosida

THE ANALYSIS OF IRONIES EXPRESSED IN ERKIN AZAM'S STORY "SHOIRNING TO'YI"

Annotation

Many artistic devices in language convey not only their main meanings but also figurative ones, serving as embellishments designed for specific communicative purposes. The usage of words in figurative senses plays an invaluable role in revealing the aesthetic function of the language and, more broadly, in clearly conveying the writer's aim within a literary text. Irony is considered one of such devices. In the story "Shoirting to'yi" ("The poet's wedding"), which we are analyzing, the author skillfully utilizes sarcasm, one of the techniques of expressing ironic meaning. The article highlights the use of irony in literary texts, the types of irony, and the means of expressing ironic meanings, through analyses based on excerpts from "Shoirting to'yi" ("The poet's wedding").

Key words: Irony, ironic meaning, sarcasm, beast, sweetheart, Otashqalb, Mafkuraxonim, Zahmatkash domla and others.

АНАЛИЗ ИРОНИИ В ПОВЕСТИ ЭРКИНА АЪЗАМА «СВАДЬБА ПОЭТА»

Аннотация

Множество художественных средств языка помимо своего прямого значения выражают переносные смыслы, служат для создания украшения, предназначенного для определенной цели говорящего. Использование слов в переносном значении играет неоценимую роль в реализации эстетической функции языка и, в целом, в четком выражении намерения писателя в художественных текстах. Ирония является одним из таких считается. В повести «Свадьба поэта», которую мы анализируем, автор мастерски использовал сарказм, один из способов выражения иронического содержания.

В статье на основе анализа повести «Свадьба поэта» освещаются применение иронии в художественном тексте, виды иронии, а также средства выражения иронического содержания.

Ключевые слова: Ирония, ироническое содержание, сарказм, чудовище, красавица, Оташкалб, Мафкурахоним, учитель Захматкаш и другие.

ERKIN A'ZAMNING "SHOIRNING TO'YI" QISSASIDA IFODALANGAN IRONIYALAR TAHLILI

Annotatsiya

Tildagi juda ko'p badiiy vositalar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nolarni ifodalaydi, so'zlovchining biror bir maqsadi uchun mo'ljallangan bezakni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tilning estetik vazifasini yuzaga chiqarishda, umuman olganda, badiiy matnda yozuvchining maqsadini aniq namoyish qilishida o'rni beqiyosdir. Ironiya mana shunday vositalardan biri hisoblanadi. Biz tahliliga kirishgan "Shoirting to'yi" qissasida ham ijodkor ironik mazmun ifodalash usullaridan biri bo'lgan sarkazmdan ustalik bilan foydalangan.

Maqolada badiiy matnda ironiyaning qo'llanishi, ironiyaning turlari hamda ironik mazmun ifodalashning vositalari "Shoirting to'yi" qissasidan olingan tahlillar yordamida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ironiya, ironik mazmun, sarkazm, maxluq, dilbar, Otashqalb, Mafkuraxonim, Zahmatkash domla va boshqalar.

Kirish. Nutqda so'z va iboralarning kesatq yoki piching orqali o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatish usuli ironiya deyiladi [8].

Ironik mazmun – bu manfiy, inkor xarakterga ega bo'lgan subyektiv baho modalligi asosida beriladigan ziddiyatli fikrlar yig'indisidan iborat bo'lgan bir butun matnning – predikativ – relyativ kompleksning mazmunidir. Ironik mazmun muallifning maqsadi, shaxsiy munosabati yashiringan formada ifodalanadi.

O'zbek tilida ironik mazmun ifodalashning asosiy usullari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: kinoya, kesatq, piching, qochirim, kulgi, zaharxandalik, istehzo, masxara, mazax, ermak, shama, ilmoq, uchuruq, luqma. Bundan tashqari arab tilidan kirgan "tajohili orifona", "ta'riz" leksemalari ham teskari ma'no ifodalash usullarining nomlari bo'lib, ta'riz pichingga, tajohili orifona esa, qochirimga sinonim sifatida qo'llanadi.

Ironik mazmun ifodalashning eng yuqori kulminatsion nuqtasiga yetkazilgan usuli uslubshunoslikda sarkazm deyiladi. Sarkazm o'ta salbiy munosabat ifodalash usuli bo'lib, unda achchiq zaharxandalik, masxaralash, mazax, qahr-g'azab ochiq-oydin sezilib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy matn hamda uning tahlilida ironiya, ironiyaning turlari, ironik mazmun ifodalovchi vositalarni o'rganish dolzarb mavzu bo'lib, o'zbek tilshunosligida ham, xorijiy manbalarda ham ilmiy izlanishlar olib borilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, o'zbek

tilshunosligida A.Mamajonovning "Tekst lingvistikasi", M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarining "Matn tilshunosligi", M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari", "Badiiy matn lingvopoetikasi", "Badiiy matnning lisoniy tahlili", M.Mirtojiyevning "Lingvistik metaforalar tasnifi", S.Muxamedova, M.Saparniyozovanning "Matn lingvistikasi" va boshqa bir qator ilmiy adabiyotlar; D.Andaniyozovanning "Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi", E.Ibragimovanning "O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari", Y.Odilovning "O'zbek tilida enantiosemya", O.Shofiyevning "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)", Sh.Abdurahmonovning "Kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar" dissertatsiyalari, jahon tilshunosligida Knox N. "The word "irony" and its context", Mueske D.C. "The compass of irony" kabi ilmiy manbalarda ironiya va uning turlari haqida ma'lumot keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Keying yillarda Erkin A'zam ijodi haqida adabiyotshunosligimizda Y.Solijonov, I.Haqqul, Q.Yo'ldoshev, Sh.Rizayev, M.Qarshiboy, S.To'laganova, G.Sattorova, P.Kenjayeve, Sh.Murodov, B.Yoriyev, N.Yo'ldoshev, D.Saydaxmatova, O.Pardayev, B.Mo'minov, M.Berdimurodova, A.Saidovlarning maqola va taqrizlari e'lon qilindi. Shuningdek, A.Xolmurodov va M.Sheraliyevaning dissertatsiyalarida Erkin A'zam ijodi material, tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan[11].

H.Boltaboyev ("O'z so'zini izlab..." maqolasida), U.Normatov, N.Xudoyberganov, R.Otayev ("Dilrabo qo'shiqlar

aytilaversin" maqolasida), N.Shukurov va I.Hasanov, O.Tog'ayev, N.Vladimirova kabilarning tadqiqotlarida Erkin A'zamning ilk ijodi haqida munosabat bildirilgan.

Erkin A'zam asarlari o'zbek tilshunosligining ham diqqat markazida bo'lib kelmogda. Buning sababi esa uning asarlarida o'zbek tilining boy va serjilo tovlanishi, xalqona so'z, ibora, qochirim, matal, maqol, aforizmlarga boyligi va boshqalar bilan izohlash mumkin. O'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, Y.Odilov, D.Andaniyozova, Sh.Toshxo'jayeva, Z.Umurqulov kabilarning tadqiqotlarida Erkin A'zam asarlari turli aspektlarda o'rganilgan[12].

Rofiyeva Gulasal Yusubjonovnaning "O'zbek tilida fransuz tiliga konseptual metaforalar tarjimasining o'ziga xos sususiyatlari (Erkin A'zam asarlari asosida)", Shofiyev Obidjon Baxtiyorovichning "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)" kabi dissertatsiyalar ham shular jumlasidandir.

M.Qo'chqorova esa adib nasridagi kinoyaviy badiiy shartlilikni quyidagicha tasniflab o'rganadi:

1. Beozor kinoya: "Anoyining jaydari olmasi", "Ta'ziya", "Navoiyni o'qigan bolalar", "Qiyofadosh" (hikoyalar).

2. Zaharxanda kinoya va sarkazm: "Shovqin" (roman), "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpapaklar mamlakati", "Guliguli" (qissalar), "Aralashqo'rg'on", "Yozuvchi" (hikoyalar), "Farrosh kampirning tushi" (drama).

3. Quvnoq yumoristik kinoya: "Pakananing oshiq ko'ngli" (qissa).

4. Liro-romantik kinoya: "Bahor", "Bahorni quvib", "Kechirasiz, o'rtoq muallim", "Shaytonchalar ko'chasi" (hikoya va qissalar).

Albatta, yuqoridagi tasnif ham shartli ekanligini inobatga olmoq lozim. Chunki bir asarda kinoyaning bir necha ko'rinishlari uchrashi mumkin[13].

Tahlil va natijalar. Ijodkor asarlari tahliliga kirishar ekanmiz, nafaqat asardagi ayrim leksik vositalar, balki asarlarining o'zidan, hatto nomidan ham ironiya ufurib turganiga amin bo'lmoqdamiz. Ushbu asar orqali e'tiborimizni ironik mazmun ifodalash usullaridan yana biri sarkazmga qaratmoqchimiz. Sarkazm ironiyaning o'tkir ko'rinishi, so'zni mutlaqo aks ma'noda qo'llash usulidir. Tahlil uchun adibning "Shoirning to'yi" qissasini tanladik. Ushbu asarni tahlil qilish davomida asarning boshdan oyoq ironiya bilan yozilganiga ishonch hosil qildik. Hatto asar qahramonlarining nomlanishida ham ironiya mavjud. Mahobatli binoda "kazo-kazolar" davrasida ardoqli ijodkor Otashqalbning yubiley to'yi nishonlanmogda. Hayratlanarli jihati shundaki, barcha munofiq va ikkiyuzlamachi insonlar old qatordan joy olgan bir paytda allaqachon o'ldiga chiqarilgan shoirni eshikdan kirishga-da haqqi yo'q.

Ulkan naqshinkor qopqa oldida odam siyraklashgan. Kelgani qo'lidagi shapaloqdek qog'ozni ko'rsatib kirib ketayotir. Anovi yo'g'on ustunning panasida payt poylab turgan ajabtovur muxlisimiz boya bir necha marotaba o'shalar safida o'zini eshikka urib ko'rdi. Bo'lmadi. Darbon xotin uni ko'rib, ko'zining paxtasi chiqib ketayozdi: bu kim, qanaqa maxluq, qayoqdan paydo bo'ldi, bu yerda nima qiladi, kim qo'ydi uni bunday joyga, hey, bu yoqqa qaranglar, odam bormi?..[14]

Sarkazm so'zni teskari ma'noda qo'llash deb aytdik, ushbu parchada ham uning namunasini uchratamiz. Ushbu hodisa "maxluq" leksemasi vositasida yuzaga chiqmogda. O'zbek tilining izohli lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Arabcha so'zdan olingan bo'lib, ko'chma ma'noda o'xshovsiz, xunuk, jirkanch jonvorga nisbatli haqoratni bildiradi"[15]. Jirkanch deya haqoratlanayotgan inson aslida yubileyi nishonlanayotgan shoir ekanligini, taassufki, til-zabonsiz, qo'l-oyoqsiz "maxluq"dan bo'lak bilguvchi yo'q.

Anjumanni shoirning yoshlik do'sti, eng yaqin safdoshi (unga aynan shunday ta'rif berildi) Oqsoqol shoir odatdagi – samimiy desa odamning haqi ketadigan, soxta desa noinsoflikka o'tadigan mujmal va chuchmal kirish so'zi bilan ochdi. Shu to'rt og'iz gapni ham u qog'ozdan ko'z uzmay o'qib berdi; chamasi, buni avval kimdir – Mitrofan Grigoryevich atalmish istalgan mavzuda istalgancha matn yozib bermoqqa qodir mangu yordamchisi o'z ona tilida bitib, so'ngra yana kimdir o'zbekchaga aylantirgan.

"Eng yaqin do'sti" deb e'tirof etilayotgan inson aslida kim? Bu leksik birlikda ham sarkazm aks ettirilgan bo'lib, buni "eng yaqin safdosh"ning nutqidan ham sezish mumkin. Qarangki, birga o'qib, birga ishlagan "eng yaqin do'st" "mangu yordamchisi" yozib bergan qog'ozga qaramay do'sti haqida bir og'iz gap aytolmasa... Nahot, shunday Oqsoqol shoirning kimdirlar yozib, yana kimlardir o'zbekchaga o'girib bergan to'rt qator matnga kuni qolgan bo'lsa? "Samimiy desa haqi ketadigan" deyilishi bejiz emas, albatta. Qanday ham aytin, aslida shoirni qamoqqa olinishi sababchi bo'lgan inson mana shu "yoshlik do'sti, eng yaqin safdoshi" emasmi? Bir qizni deb do'stlar dushmanga aylangan, hasaddan o'z do'stiga xiyonat qilgan inson "shoirning to'yi"da eng aziz mehmon...

Mamnuniyat bilan Mafkuraxonga so'z berishga berdi-yu, Oqsoqol shoir ichida g'ijini qo'ydi: "Endi shu manjilaqi bizga katta!". Boyagi hijolatbozlik esiga tushib, xuddi o'zi mulzam bo'lgandek noqulaylik sezdi.

So'zimiz avvalida asar qahramonlarining ismidagi ham sarkazm namoyon etilishi aytgan edik, mana so'zimizning isboti. Mafkuraxon qanchalar ismi jismiga monand ayol? Axloqiy buzuc (Tepakal bilan ishqiy munosabatlari buning isboti), dunyoqarashi past, ma'naviy qashshoq, bilimsiz, aql-u idrokdan mahrum (hatto, qaysi davrada ekanligidan bexabar bu ayol o'lib ketgan shoirning to'yida yubilyar keldimi deb so'raganidan bilish mumkin), shu qadar tuban kimsaki, mansablarga tayinlashda ham insonlarni bilimiga emas, husniga, chiroyiga, yengiltak ekanligiga qarab tayanlaydi. Atrofini ham o'zi kabilar bilan to'ldirmoq ilinjida. Aslida ismining mutlaqo aksi bo'lgan "Mafkuraxon" davraning eng kattalaridan, eng obro'lilaridan biri. Oqsoqol "manjilaqi" leksemasi vositasida uning naqadar axloqiy tuban ayol ekanligini shama qilmogda.

Anovi tolmas safsataboz zavq-shavq bilan davom etardi:

Shoirning chap yonida, yurakka yaqin tomonda, tabiiyki, uning sevikli rafiqasi, o'zi ta'rif etmish "muhabbat guli" – Ma'shuqaxonim o'tirgan bo'lur edilar[1].

"Yurakka yaqin", "sevikli rafika" sifatida kimlar tushuniladi, aslida?! Bir umr bir yostiqqa bosh qo'yan, yaxshi va yomon kunlarida hamroh, dardlariga darddosh, vafo va sadoqat timsoli, har qanday yomon kunda ham yonida yelkama yelka tura oladigan bardoshli, irodali, yori uchun shirin jonini-da nisor qilishdan qaytmaydigan rafika anglashiladi sevikli rafika deganda. "Sevikli rafika" deya ko'klarga ko'tarilayotgan ayol esa bir-ikki ko'ngilxushlik qilib, tuxmat toshlari shoiriga otilgan zamonda nomini tiliga ham olmagan, bir qarasangiz artistga, bir qarasangiz o'ris polkovnikka tegib suykalmagan erkagi qolmagan bir taviya. Otashqalbning nomi oqlangandan so'ng esa o'zidan vafodor rafika yasab olgan. Otashqalbning unda mutlaqo ko'ngli bo'lmagan, uning muhabbati aslida boshqa bir go'zal bo'lgan. Yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa ham axloqiy buziqligi qolmagan bu "ochiq qozon" shu davrada ham o'zini namoyish etish bilan band. Bu haqiqatlarni Oqsoqol shoirgina biladi xolos, lekin afsuslar bo'lsinki, yurak yutib bir so'z aytishga jur'at etolmaydi. Bir vaqtlar nafsining gapiga kirib, Ma'shuqaxonim bilan qilgan ishlari bunga izn bermaydi, sharmanda bo'lishdan, obro'sini yo'qotishdan qo'rqadi. Qolaversa, bu makkor ayol uning xotini bilan ham qalin bo'lib olgan.

Moviyko'z dilbar... ana, o'tiribdi. Ma'shuqaxonimning biqinida. Basharus burishib, bujmayib ketgan, bir zamonlar Otashqalbni entiktirgan moviy ko'zlar endi xira tortib, tussiz bo'lib qolgan. Alvasti![1]

Dilbar so'zi ham aks ma'noda qo'llangan leksemalardan hisoblanadi. Uning tabiatiga ko'proq Alvasti leksemasi munosibrog. Ushbu leksemaga O'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan: "Dilbar so'zi forscha so'zdan olingan bo'lib, dilni tortuvchi, jalb etuvchi, yoqimli degan ma'nolarni bildiradi. 1. Dilni maftun etadigan, o'ziga tortadigan, yoqimli, dilrabo. 2. Go'zal yor, mahbuba, ma'shuqa. 3. Ko'rkamligi, odobi va nazokati bilan es-hushni oladigan, chiroyli"[6]. Moviyko'zda bunday sifatlar mujassam emas. Ehtimol, bir vaqtlar chiroyli bo'lgandir, biroq odobli deya olmaymiz. Ko'plab erkaklarning boshini aylantirgan, ko'ngilxushlik qilib ketaverishdan qaytmaydigan bu Moviyko'z Otashqalb va Oqsoqol shoirning ham ko'nglidagi joy olgan edi. Ular uchun bu dilbarsiz ko'zlariga dunyo tor, hayot qorong'u edi. Ikki do'stni dushmanga aylantirgan

ham shu makkora. Oqsoqol shoir Moviyko'zni qo'lga ilintirish ilinjida o'z do'stiga nisbatan sotqinlik qiladi. U jondan ortiq suygan ayoli aslida Alvasti ekanligini juda kech anglab yetdi. Bu vaqtda ortga qaytishning imkonini yo'q edi.

Bu qizning otasi viloyat ijroqo'miga rais bo'lgan. Uch yilmi-to'rt yil bo'ldi olamdan o'tganiga. Qiz esa o'zi ko'rmagan-bilmagan shoir amakini qattiq tutgan.

Shunisigayam rahmat demaysizmi, birodar, shu kunda jon-jigarlar bir-birining ko'ziga cho'p suqib yuribdi-ku!

Rahmat, - dedi Zahmatkash domla. U "rahmat" dedi-yu, "la'nat" ma'nosida aytdi[1].

Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, sarkazm achchiq kulgi. Ushbu parchani o'qir ekanmiz, "rahmat" leksemasi tagida zaharxanda, achchiq kulgini sezmaslikning imkonini yo'q. Zahmatkash domla rahmat so'zini "la'nat" ma'nosida ishlatadi. Buning boisi, bugun amakisining etagiga osilib olgan, uning uchun soxta ko'zyoshlar to'kayotgan bu makkor ayol na amakisini taniydi, na uning biror misra she'rini yoddan biladi. She'riyatdan mutlaqo bexabar Jiyanbeka iste'dodli shoirlardan. Axloqiy jihatdan tubanlik borasida Ma'shuqaxonim, Alvastixonim, Mafkuraxonimlardan aslo qolishmaydi. Ko'r-ko'rni qorong'uda topadi deyishlari shu davraga munosib tarzda aytilgan bo'lsa ne ajab. Amakisining qabrini ziyorat qilish uchun Zahmatkash domla bilan safarga chiqqan sirtan mehribon, fidokor jiyan bo'lib

ko'rinuvchi makkor Jiyanbeka safar davomida Mas'ul xodim bilan araq ichib, ko'ngilxushlik qilishdan nariga o'tmaydi.

Eng achinarlisi, bularning barini Otashqalb bir chekkada o'z ko'zlari bilan ko'rib, quloqlari bilan eshitib turgan edi. Uni faqatgina shu a'zolari omon qolgan edi. Lekin bularga qarshi bir so'z deyishga ojizlik qilardi. Oqsoqolning o'limi haqidagi xabardan so'ng tongda paxtasi chiqqan kamzul cho'ntagidan Otashqalbning hujjatlari topiladi. Hamma hayratda, ammo izohlab beroladigan kimsa topilmaydi.

Xulosa va takliflar. Ijodkor asarlari insonni mushohadaga chorlaydi. Kitobxon beixtiyor o'yg'a toladi. "Shoironing to'yi" qissasidagi ironiyaning kulminatsiyasi sarkazm asarning yana-da ta'sirchan chiqishiga xizmat qilgan. Sarkazm ayrim adabiyotlarda antifraza deb ham yuritiladi. Asardagi "eng yaqin do'st", "safdos", "dilbar", "Ma'shuqaxonim" va boshqa bir qator leksemalar sarkazmni ifodalovchi leksik birliklardir. Bir so'z bilan aytganda ironiyalarni ijodkor asarlari bag'riga shu qadar singdirib yuborganki, qoyil qolmay iloj yo'q.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, o'zbek tilida salbiy munosabat ifoda etishning xilma-xil usullari mavjud bo'lib, ular bir-biridan darajalanishi bilan farqlanadi. Erkin A'zam mana shu vositalardan o'z ijod namunalari mohirlik bilan foydalana olgan. Tahlilga tortilgan asarlari ham fikrimizning isboti bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Erkin A'zam. Shoironing to'yi. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 28.
2. Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. Filo.fan.n.diss. 6918/2001.
3. Mueske D.C. The compass of irony. – London: Methuen d LTD, 1969. C.10. – P.276.
4. Odilov Y. O'zbek tilida enantiosemiya. Dis-232/2016. –B. 86.
5. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. -B. 241.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 67.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 450.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006. – B. 320.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006. – B. 341.
10. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 24.
11. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 19.
12. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 20.
13. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 28.
14. Erkin A'zam. Shoironing to'yi. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 2.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 559.